

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 378 3701+159 9372 89 0

**TALABALARNING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEKNOLOGIYASI****ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ****TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE OF
STUDENTS****Tojiboyev Jaxongir Umidjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi bugungi kun talabidan kelib chiqib, kreativ yondashuv asosida takomillashtirilgan. Bugungi kunga qadar talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish jarayonini texnologiyalashtirish muammosi ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, MDH olimlari V.Maksimova, L.Klikova, R.Djandosov, mamlakatimiz tadqiqotchi olimlari F.Rabbimova, N.Yuldashevalar talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning turli texnologiyalarini amaliyotga joriy etganlar. Badiiy-estetik tarbiya texnologiyalarining xarakterli jihatlari ta'lim subyektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Hissiy-obrazli, muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi. Badiiy-estetik tarbiya jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar talabalarning badiiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, o'qituvchi hamda talabalar orasidagi demokratik munosabatlarni ta'minlashga imkon berishi natijasida badiiy-estetik ta'limning sifati va samaradorligiga erishiladi. Ushbu jihatlarni hisobga olga holda, mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining to'rt bosqichdan iborat (motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli, shaxsiy-rivojlantiruvchi) pedagogik algoritmi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash usullari va vositalari yoritilib berilgan

Аннотация

В данной статье технология развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства совершенствуется с учетом требований сегодняшнего дня и на основе творческого подхода. На сегодняшний день проблема технологического развития художественно-эстетической компетентности студентов изучается многими учеными-исследователями. Например, ученые СНГ В. Максимова, Л. Кликова, Р. Джандосов, ученые-исследователи нашей страны Ф. Рabbimova, Н. Юлдашева применяют на практике различные технологии развития художественно-эстетической компетентности учащихся. Характерные аспекты технологий художественно-эстетического воспитания проявляются в совместной реализации исследовательской деятельности по учебным предметам. В результате эмоционального воображения, обсуждения и выбора создаются сильные межличностные совместные действия. Технологии, используемые в процессе художественно-эстетического воспитания, призваны развивать художественно-эстетические компетенции учащихся, и в результате обеспечения демократических отношений между преподавателем и учащимися достигается качество и эффективность художественно-эстетического воспитания. С учетом этих аспектов в данной статье разработан четырехэтапный (мотивационный, познавательный, практико-деятельный, личностно-развивающий) педагогический алгоритм технологии развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства, методы и средства использования технологий в образовательном процессе.

Abstract

In this article, the technology for developing artistic and aesthetic competence of future visual arts teachers is improved based on today's demand and based on a creative approach. To date, the problem of technological development of students' artistic and aesthetic competence has been studied by many research scientists. For example, scientists of the CIS V. Maksimova, L. Klikova, R. Djandosov, research scientists of our country F. Rabbimova, N. Yuldasheva put into practice various technologies of developing artistic and aesthetic competence of students. The characteristic aspects of artistic and aesthetic education technologies are manifested in the joint implementation of research activities in educational subjects. As a result of emotional-imagery, discussion and choice, strong interpersonal cooperative action is created. The technologies used in the process of artistic-aesthetic education are designed to develop the artistic-aesthetic competences of students, and as a result of ensuring democratic relations between the teacher and students, the quality and efficiency of artistic-aesthetic education is achieved. Taking into account these aspects, in this article, a four-stage (motivational, cognitive, practical-active, personal-developing) pedagogical algorithm

PEDAGOGIKA

of the technology of developing the artistic aesthetic competence of future visual arts teachers has been developed. methods and means of using technology in the educational process are highlighted

Kalit so'zlar: *Badiiy-estetik, kompetentlik, texnologiya, modulli texnologiya, algoritm, kreativ yondashuv.*

Ключевые слова: *Художественно-эстетическое, компетентность, технология, модульная технология, алгоритм, креативный подход.*

Key words: *Artistic-aesthetic, competence, technology, modular technology, algorithm, creative approach.*

KIRISH

Respublikamizda ta'limni modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak pedagoglarga sifatli ta'lim berish, ularni pedagogik faoliyatga har tomonlama mukammal tayyorlash, uzluksiz ta'lim ishtirokchilarini ma'naviy-axloqiy va estetik jihatdan to'g'ri shakllantirish masalalariga kata e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish[1] oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berilgan. Bu esa, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini estetik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish, badiiy-estetik madaniyatni rivojlantirish mazmuni, bosqichlari, shakl, metod va vositalarini o'rganish, mazkur jarayonni amalga oshirish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish muammosi bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotchi va olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan: tadqiqotchi V.Maksimova[3] O'quvchilarning estetik kompetentligini shakllantirishda integrativ-modulli texnologiyalaridan foydalanishni taklif etadi. Integratsiya fanlararo tushuncha bilan chambarchas bog'liq. Integrativ texnologiyalarning evolyutsiyasini o'rganib chiqib, ushbu hodisani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar fanlararo aloqalar ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, o'quvchilarni estetik kompetentligini rivojlantirishning 5 bosqichdan iborat integrativ-modulli algoritmini ishlab chiqdi.

Tadqiqotchi L.Klikova [4] talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishda strategik va taktik ta'lim texnologiyalarini qo'llash masalalarini ko'rib chiqadi. Strategik ta'lim texnologiyalarining maqsadi talabalarni kasbiy tayyorlashning barcha bosqichlarida ulardan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Strategik ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish ularni taktik ta'lim texnologiyalari orqali konkretlashtirishni o'z ichiga oladi, ularning tanlovi tadqiqotchi tomonidan taktik ta'lim texnologiyalarining potentsialini aniqlash jarayonida amalga oshiriladi, bu orqali tadqiqotchi ma'lum strategik texnologiyalar doirasida talabalarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning taktik maqsadlariga erishishning aniq usuli ekanligini ta'kidlaydi.

F.Rabbimova[2] bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirishning fanlararo modulli texnologiyasini ishlab chiqqan. Tadqiqotchi ushbu texnologiyada integrativ fan sohalari, integrativ ta'lim mazmuni, integrativ o'qitish shakllari hamda metod va usullarini aniqlashtirgan. Uning fikriga ko'ra, ishbilarmonlik o'yinlari, trening, muammoli vaziyatlar, xamkorlikda ishlash, muammoli, izlanishga doir, keys-stadi topshiriqlari hamda o'quv loyihalari badiiy-estetik kompetentlikning motivatsion kognitiv va faoliyatga doir komponentlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

R.Djandosov[5] o'z tadqiqotlarida talabalarning estetik kompetentligini shakllantirishning akmeologik texnologiyasini amaliyotga joriy etdi. Tadqiqotchi ushbu texnologiyada talabalarni estetik kompetentligini rivojlantirishning akmeologik, pedagogik, tashkiliy shart-sharoitlarini hamda metodlarini qo'llash algoritmini ishlab chiqqan.

Yuqorida keltirilgan bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalariga doir tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida biz tomonimizdan talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, ushbu texnologiyani "Tasviriy san'at tarixi" fani doirasida amaliyotga tatbiq etish ko'zda tutildi. "Tasviriy san'at tarixi" fanining o'quv dasturi va sillabusini taxlil etish natijasi shuni ko'rsatdiki, ushbu fanni o'qitishga qo'yiladigan boshlang'ich talablar: fanga oid nazariy va

amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish ekanligi aniqlashtirildi. Bundan tashqari, ushbu modulni o'qitishda o'quvchilarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni va xususiyatlari, tasviriy san'atga o'rgatishning didaktik tamoyillari; tasviriy san'atga o'qitish jarayonida tasviriy san'at tarixining rivojlanish bosqichlarini o'rganish; milliy va jahon tasviriy san'at tarixiga oid ma'lumotni bilish, tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, rangshunoslik qonuniyatlari, rang xarakteristikasini o'rganish; tasviriy san'at tarixini o'qitish jarayonida talabalarni estetik jihatdan tarbiyalash; tasviriy san'at tarixini o'rganish davomida san'at asarlarini taxlil qilish tasavvuriga ega bo'lish; tasviriy san'at tarixi yaxshi o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonini taxlil etish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish, ko'nikmalariga ega bo'lish kabi ta'lim natijalariga erishish ko'zda tutilgan. Shu jihatlariga ko'ra biz tomonimizdan taklif etilayotgan talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini mazkur fanni o'qitish jarayonida amaliyotga tatbiq etish yaxshi samara beradi.

Talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning har sohada go'zallika intilishi, go'zallikni his qila olishi, ayniqsa, tasviriy san'at sohasida yangi va qimmatli san'at asarlarini yarata oluvchi shaxsni shakllantirish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz tomonimizdan takomillashtirilgan texnologiyasining maqsadi talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish har tomonlama yetuk ijodkor shaxsni tarbiyalash etib belgilandi.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, texnologiyani amaliyotga joriy etishning mazmuni va talablari aniqlashtirildi. Talabalarda shaxsiy-axloqiy va ijodiy fazilatlarini shakllantirish nafaqat bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari balki, har qanday ta'lim yo'nalishida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning muhim talablaridan biridir.

Chunki, bugungi kunda zamonaviy o'qituvchi ham kasbiy, ham shaxsiy-axloqiy fazilatlarini bilan talabalarga shaxsiy namuna bo'lishi barobarida, ularda shu fazilatlarini shakllantira olishi zarur. Bundan tashqari, tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim sharoitida o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilish, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu esa bo'lajak o'qituvchidan doimo o'z ustida ishlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik faoliyatni tashkil etishning badiiy-estetik xususiyatlarini mukammal bilishni talab etadi. Ushbu xislatlarning barchasi talabalarda badiiy-estetik faoliyatga nisbatan ongli faollikni hosil qilish asosida rivojlanadi.

Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Motivatsion-qiymat;
2. Kognitiv;
3. Amaliy-faoliyatli;
4. Shaxsiy-rivojlantiruvchi;

Motivatsion-qiymat bosqichi o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalar majmuasini hal qilishni o'z ichiga oladi ular: san'at asarlarining hissiy mazmunini tushunish orqali talabalarning hissiy-emotsional qobiliyatlarini rivojlantirish; o'ziga va tanlangan kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish; san'at asarlarini idrok etishga qiziqish paydo bo'lishi uchun shart-sharoit yaratish va uni baholash; ma'lum bir san'at turi yordamida badiiy obraz yarata olish; to'liq shaxsiy o'sishga intilishni rivojlantirish ijodkor-raassom va o'qituvchi sifatida o'z-o'zini anglash.

Motivatsion-qiymat bosqichida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning motivatsion komponentini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi sharoitlarda samarali bo'ladi: o'quvchilarning o'quv jarayoniga voqelik, tabiat va san'at haqidagi badiiy bilimlarni kiritish orqali axloqiy-estetik qadriyatga ega bo'lgan yuksak badiiy mahoratga ega xalq amaliy san'ati asarlariga qiziqishni shakllantirish; haqiqatni izlash, zavqlanish, insoniyatning ma'naviy qadriyatlarini belgilash go'zalligining estetik jihatlari ochib berish; pedagogik jarayonni badiiy obraz yaratish xususiyatlari bilan ta'minlash; talabalar uchun dolzarb bo'lgan motivlar va ehtiyojlarni izlash, buning natijasida o'z-o'zini badiiy-estetik rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari samarali shakllanadi.

Bizga ma'lumki san'at asarlari o'zida ko'p yillik sirlarni saqlab kelmoqda uning mohiyatini, unda yashiringan go'zalliklarni har kim ham tushuna olmaydi. Ushbu go'zalliklarni anglab yetish uchun insondan yuqori darajadagi badiiy-estetik kompetentlik talab etiladi. Biz motivatsion-qiymat bosqichida talabalarga turli davrlarga tegishli bo'lgan san'at asarlarini taqdim etdik. Talabalar tomonidan ular badiiy tahlil qilinib undagi yashirin sirlar go'zalliklar aniqlashtirildi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish ularga turli davrlar va mamlakatlar san'at tarixi haqida ma'lumotlar berish va shu orqali ularni bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Talabalarni badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning kognitiv bosqichida biz quyidagilarni hisobga oldik: san'atning murakkab o'zaro ta'sirini tushunishga qaratilgan badiiy madaniyatning pedagogik talqiniga qarab o'quvchilarda badiiy-estetik bilimlarni rivojlantirish; o'quvchilarning ijodiy faoliyatining asosi bo'lgan bilim bilan tavsiflangan qiymat funksiyasi; badiiy asarni idrok etish, tahlil qilish va talqin qilish sohasidagi umumiy badiiy bilim va o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini tartibga soluvchi evristik funksiya; o'quvchilar bilan san'at vositalari orqali muloqot qilish imkonini beradigan ta'lim va kommunikativ funksiyalar.

Talabalarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishni ta'lim berish bilan bir qatorda faoliyatga bog'lash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham texnologiyani navbatdagi bosqichini biz faoliyatli bosqich deb nomladik. Chunki, faoliyatda tajriba almashish, o'zaro ta'sir o'tkazish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda shaxsning his-tuyg'ulari rivojlanadi. Shuningdek, shaxsning turli ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlar yaratiladi, talabalarining faoliyati rag'batlantiriladi va natijada shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirish istagi amalga oshiriladi.

Biz ushbu bosqichda talabalarni amaliy faoliyatga jalb etib, interfaol metodlardan foydalangan holda ularga badiiy-estetik mazmundagi topshiriqlar berdik. Masalan, seminar mashg'ulotlarida virtual ekskursiyalar uyushtirib, turli muzeylarning (Luvr, Ermitaj, Metropoliten, Britaniya muzeyi) san'at asarlari bo'limiga sayohat qildik. Talabalar muzeylarda turli davrlarga tegishli bo'lgan mashhur san'at asarlari bilan tanishdilar. Muzeylarda shakllantirilgan tasavvurlar asosida biz talabalaridagi badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish maqsadida "Esse", "mashhur yoki mashhur bo'lmagan rassom", "Ven diagrammasi", "Munozara", "Asalari galasi" kabi interfaol metodlar(-ilova)ni qo'lladik.

Talabalar o'z faoliyatidagi pedagogik muammolarni motivatsion va maqsadli hal qilish orqali bilimlarni faol-ilmii o'zlashtirish, amaliy va ijodiy tajribani to'plash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ya'ni, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy shakllanishining birligi amalga oshiriladi. Bu san'at bilan aloqa qilish jarayonida talabalarining badiiy-estetik tarbiya bilan badiiy-pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini uyg'unlashtirishga imkon yaratadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning shaxsiy-rivojlanish bosqichida umuminsoniy bilim va uning dunyo qiyofasini, shaxsiyatini yaratish o'rtasidagi bog'liqlik amalga oshiriladi. Talabalarining badiiy-estetik kompetentligining shaxsiy rivojlanish komponentini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy qoidalari hisobga olinadi. Bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni, o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlaydi hamda ta'lim jarayoni va ularning shaxsiy funksiyalarini aniqlashtiradi. Haqiqiy kasbiy faoliyat holatlarini modellashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, tanlash jarayonida bo'lajak mutaxassisning shaxsiyati shakllanadi. Shuni yodda tutish kerakki, badiiy madaniyatni o'rganish va tushunish orqali inson boshqa odamlarning ma'naviy dunyosi bilan tanishadi, ularning hayotining xususiyatlarini tushuna boshlaydi, insoniyatning ma'naviy dunyosini kuzatadi, shu asosda o'z shaxsiyati shakllanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligining shaxsiy-rivojlanish komponentini shakllantirish o'qituvchi va talabalarining ijodiy o'z-o'zini anglash, dunyoqarash, axloqiy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirishning shaxsiy istalgan darajasiga erishish bilan bog'liq shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ijodiy tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidagi hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

Ushbu bosqichda biz "eng yaxshi san'at asari" nomli ko'rik tanlov uyushtirdik talabalarga erkin mavzuda rasm ishlash topshirig'i berildi. Ular yuqorida ta'kidlangan bosqichlarda olgan bilimlariga asoslangan holda bir-biriga o'xshamagan go'zal san'at namunalarini taqdim etishdi.

XULOSA

Talabalarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini amaliyotga joriy etishda yuqorida ta'kidlangan har bir bosqichda biz tomonimizdan taklif etilayotgan metodlarni o'z vaqtida samarali qo'llash orqali, ushbu jarayonni texnologiyalashtirishdan ko'zlangan maqsadga erishish imkoni yaratiladi.

Xulosa tariqasida e'tirof etish joizki, kreativ yondashuv asosida talabalarda badiiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonda qo'llaniladigan texnologiyalar,

birinchidan, ta'limni turlicha sharoitlarda, har xil metodik yondashuvlarni qo'llash uchun muhit yaratiladi. Ikkinchidan, har qanday texnologiya talabalarda rivojlantiriladigan badiiy-estetik kompetensiyalarni sohaning xususiyatlariga monandligini ta'minlash pirovardida yuksak professional kompetensiyaga ega bo'lgan tasviriy san'at o'qituvchisini tayyorlashni muayyan darajada kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 08.10.2019-yildagi PF-5847-son
2. Rabbimova F. Bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish. p.f.b.f.d.(.)PhD diss.avotoref. Toshkent, 2021. – B. .11
3. В.Максимова. Формирование эстетической компетентности учащихся младшего школьного возраста в условиях дополнительного образования. дисс.авотореф Казань. 2013.
4. Л. Кликова Развитие художественно-эстетической компетенции студентов хореографических специальностей. дисс.авотореф **Челябинск.2009.**
5. Р.Джандосов. Развитие эстетической компетентности социальных педагогов в вузе. дисс.авотореф Москва. 2007.